NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.15.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

VALIJONOV SHAXBOZ ODILJON O‘G‘LI

KORXONALARDA RAQOBAT MUHITI SHAROITIDA SIFATNI BOSHQARISHNING ISTIQBOLLARI
(Yengil sanoat korxonalari misolida)

08.00.13 – Menejment

IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

UDK:658:562

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертатсии доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economics sciences

Valijonov Shaxboz Odiljon o‘g‘li
Korxonalarda raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarishning istiqbollari (Yengil sanoat korxonalari misolida)..... 3

Валижонов Шахбоз Одилжон угли
Перспективы управления качеством в условиях конкурентной среды на предприятиях (на примере предприятий легкой промышленности)..... 29

Valijonov Shahboz Odiljon ugli
Prospects for quality management in enterprises under competitive market conditions (on the example of light industry enterprises) 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 63

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.15.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

VALIJONOV SHAXBOZ ODILJON O‘G‘LI

KORXONALARDA RAQOBAT MUHITI SHAROITIDA SIFATNI BOSHQARISHNING ISTIQBOLLARI
(Yengil sanoat korxonalari misolida)

08.00.13 – Menejment

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiton Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5546 raqam bilan ro‘yhatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdtu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kazakov Olim Sabirovich** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Oqboyev Alisher Rasuljanovich** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
	Dadaboyev Tulqinjon Yusfjonovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.15.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat ___:___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160103, Namangan shahri, Yangi Namangan tumani, I.Karimov ko‘chasi 12-uy. Tel.: (69) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160103, Namangan shahri, Yangi Namangan tumani, I.Karimov ko‘chasi 12-uy. Tel.: (69) 234-14-85).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Z.Muxitdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

O.A.Xudayberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O.A.Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o’rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda lashuvning kuchayib borishi sharoitida korxonalarning samarali faoliyat yuritishi tobora murakkablashib bormoqda. Bozor muhitining tez o‘zgarishi, raqobat kurashining kuchayishi va iste’molchilar talabining ortishi korxonalar oldiga mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha yuqori talablarni qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, sifat har qanday korxona faoliyatining muhim natijaviy ko‘rsatkichi sifatida nafaqat mahsulotning texnik talablarga muvofiqligini, balki resurslarni tejash, xarajatlarni kamaytirish va bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlashni ham ifodalaydi. Sifatni boshqarish tizimi korxonalarda mahsulot sifati barqarorligini ta’minlash, xatolar va nuqsonlarni kamaytirish, mijozlar qoniqishini oshirish hamda bozorda ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. ISO ma’lumotlariga ko‘ra, “ISO 9001 sifatni boshqarish standarti korxonalarda ishonchlilik va faoliyat samaradorligini oshirish, xatolarni kamaytirish, mijozlar hamda hamkorlar ishonchini kuchaytirish imkonini beradi”[1]. Bu esa raqobat muhitida sifatni boshqarish tizimini korxonaning barqaror rivojlanishi va bozorda ustunlikka erishishining muhim boshqaruv vositasiga aylantiradi. Xalqaro tajriba ham standartlashtirish va sifatni boshqarish tizimlarining iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Jumladan, “Germaniyada standartlashtirishdan olinadigan yillik iqtisodiy samara taxminan 18 milliard yevroni tashkil etishi qayd etilgan”[2]. Bu holat sifatni boshqarish korxonalar uchun faqat texnik talab emas, balki iqtisodiy samaradorlik, resurs tejamkorligi va raqobatbardoshlikni ta’minlovchi muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o‘rtasidagi raqobatning kuchayib borishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasiga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Ayniqsa, eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarda, jumladan, to‘qimachilik sanoatida mahsulot sifati korxonaning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Korxonalarda raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarish nafaqat mahsulotning texnik ko‘rsatkichlarini nazorat qilish, balki ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida sifatni ta’minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv tizimini shakllantirishni talab etadi. Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, sifatni boshqarish jarayoni korxonaning strategik rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u iste’molchilar ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu sababli korxonalarda sifatni samarali boshqarish tizimini joriy etish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekistonda ham mahsulot sifatini oshirishga va raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishish yo‘nalishida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida raqobatbardoshlikni oshirish hisobiga eksport salohiyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratildi. “Bu yil boshlangan «Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh

[1] International Organization for Standardization. The ISO Survey Results 2022.

[2] Меморандума ИСО/Международного энергетического агентства IEA. http://www.rostest.ru /International%20standardization.php.

mahsulotlar yurti» dasturi o‘z samarasini bermoqda. Bir yilning o‘zida 2 mingga yaqin tadbirkorlar ilk bor tashqi bozorlarga chiqdi. Evropa bozorlariga tekstil, elektr texnikasi, charm-poyabzal va boshqa tayyor mahsulotlar eksportini kamida 2 barobar oshiramiz. Mahsulotlar eksporti bo‘yicha hozirgi 9 ta bosqichdan iborat bojxona rasmiylashtiruvi 3 barobar qisqaradi. Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish bo‘yicha asosiy muzokaralarni yakunlab, ichki qonunchilikni moslashtirish, yangi standartlarni joriy etish ishlarini jadallashtiramiz. Umuman, 2023- yilda eksport hajmi tariximizda ilk bor 23 milliard dollardan ortadi”[3]. Yuqorida qayd etib o‘tilgan vazifalarning samarali amalga oshirilishi mazkur muammolarning ilmiy yechimnga imkon yaratuvchi tadqiqotlarning dolzarbliginin belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 13-iyundagi PF-153-son “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 30-sentyabrdagi PF-228-son «Yengil sanoat korxonalarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 27-iyuldagi PF-178-son “Yengil sanoat korxonalari bilan samarali muloqot tizimini joriy etish va ularning huquqiy ximoyasini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-yanvardagi PF-54-son “Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 21-dekabrdagi PF-268-son “Yengil sanoat korxonalarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5262-son «Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Boshqaruv faoliyatini rivojlantirish, korxona va tashkilotlarda sifatni boshqarish va raqobatdoshlik masalalarining nazariy va uslubiy asoslari xorijiy iqtisodchi olimlardan R.Kantilon, Y.Shumpeter, R.Xizrich, M.Piters, J.B.Sey, A.Xosking, L.Vodachek, P.Druker, L.Mizes, F.Xayek, E.Xargadon, K.Isakava va boshqalarning asarlarida o‘rganilgan[4].

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. Toshkent, «O‘zbekiston», 2023 y. (https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi)

[4]Кантильон Р. Основы предпринимательской деятельности.- М.: 1994. – 144 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. –М.:1982.–230 с.; Хизрич Р. Питерс М. Предпринимательство. Вып 1. –М.: 1998.–

Boshqarish faoliyatida sifatni oshirish hamda samarali faoliyatni ta’minlash masalalari bilan MDH olimlaridan L.I.Abalkin, G.S.Seyalova, V.G.Gutman, I.A.Rodionova, V.G.Medinskiy, L.G.Sharshukova va A.V.Busigin ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar[5].

Sifatni boshqarish masalalari bilan mamlakatimizning qator olimlari N.Q.Yo‘ldashev, O.S. Kazakov, Sh.Z. Muxitdinov, R.R. Nazarova, X.X. Nurimbetov, A.R. Oqboyev, G.K. Sultanova, M.I. Raximova[6] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan. I.M.Kamoliddinov, I.K.Yax’yayeva, I.K.Jo‘rayev, U.Sh.Yusupov, R.A.Isayev, M.R.Xudayqulov va boshqalar yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi masalalarini ular faoliyatining samaradorligi bilan bog‘laganlar va turli resurslardan foydalanish samarasi bilan bog‘lashga harakat qilganlar[7]. Biroq, yengil sanoat korxonalarida raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarishning istiqbollariga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish masalalari dolzarb bo‘lganligi munosabati bilan mazkur mavzu tanlandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga

---

126 с.; Сей Ж.Б. Трактат политической экономии – М.: Экономика. 1980.-217 с.; Хоскинг А. Курс предпринимательства.- М.: Международные отношения, 1993. - 273 с. Водачек Л., Водачкова. Стратегия управления инновациями на предприятии. – М.: Экономика, 2004.-365с.; Друкер П. Управление бизнесом. – М.: Альпина Диджитал, 2016. -250 с.; Мизес Л. Теория и история: Интерпретация социально-экономической эволюции. –М.: Юнити-дана, 2001 -295 с.; Хайек Ф. Право, законодательство и свобода. –М.: Ирисэн, 2006. - 220 с.; Харгадон Э. Управление инновациями. Опыт ведущих компаний. –М.: ИД Вильямс, 2007. 340 с.

[5]Абалкин Л.И. От экономической теории до концепции долгосрочной стратегии // М., 2011, с. 39-47. Сеялова Г.С. Организационно-экономический механизм управления предприятиями. Монография. "Оренбург. гос. ун-т". - Оренбург : ОГУ, 2016. - 139 с. А.Г.Гранберг Основы региональной экономики. М.: ГУ.ВШЭ. 2004. -495 с.; В.Г.Гутман и др. Управление региональной экономикой М.: Финансы и статистика. 2002. -176 с.; Родионова И.А. Региональная экономика. М.:Экзамен. 2003. -384 с.; Медынский В. Г., Шаршукова Л. Г. Инновационное предпринимательство: Учеб. пособие. –М.: ИНФРА-М, 1997. -237 с.; Бусыгин А. Предпринимательство. –М.: Бусыгин, 2003. -614 с.

[6]N.Q. Yo‘ldashev, “Sifat menejmenti”. Darslik. TDIU. 2019 yil // O.C. Казаков. Менежмент. Дарслик. “Фан зиё” нашрёти. Тошкент 2021. // Sh.Z. Muxitdinov. Korxona risklarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. Namangan: “Mashrab” nashriyoti. 200-bet. // P.P. Назарова. Управление внешнеэкономической деятельностью в Узбекистане на основе инновационного развития в условиях глобализации. Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. 2011 // M.I. Rahimova “Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini xalqaro sifat standartlari asosida oshirish”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2024 yil.// Нуримбетов Х.Х. "Ташқи савдо фаолиятини либераллаштириш шароитида экспортни бошқариш стратегиялари" // ТДИУ Илмий ахбороти, №2, 2021.// A.R.Oqboev. “Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning metodologik asoslarini takomillashtirish (Farg‘ona vodiysidagi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari misolida)” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. 2025 // M.I. Rahimova “Tadbirkorlik sub’yektlarining eksport salohiyatini xalqaro sifat standartlari asosida oshirish”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2024

[7]Kamoliddinov I.M. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish» Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. Namangan, NamMTI, 2023, Yaxyaeva I.K. To‘qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. Toshkent, TDIU, 2022, Jo‘raev I. K. Kichik biznes sub'ektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish (To‘qimachilik korxonalari misolida): Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. Namangan, NamMTI, 2022, Yusupov U.Sh. Tikuv-trikotaj korxonalarida innovasion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. Toshkent, TDIU, 2022, Isaev R.A. To‘qimachilik sanoatida sifat menejmenti tizimi asosida strategik boshqarishni takomillashtirish metodologiyasi.Doctor of science ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiyasi. Toshkent-2022 yil, Xudoyqulov.M.P. To‘qimachilik korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtorefarati-T.: TDIU, 2019 yil.

muvofiq, ITM-6 «Kichik biznes va tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korxonalarda raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarishning istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sifat va uni boshqarish bo‘yicha nazariy-metodologik asoslarni tadqiqi etish;

yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarishning uslubiy jihatlarini o‘rganish;

sifatni boshqarish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari va ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish tizimining hozirgi holati tahlil qilish;

raqobat muhitida yengil sanoat korxonalarida mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi omillarni baholash;

“Yanteks” MChJ sifatni boshqarish samaradorligini baholash;

Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligini asosida baholash;

sifatni yaxshilashni tashkil etish va rag‘batlantirish orqali ta’minlash yo‘nalishlarini aniqlash;

korxonalarda sifatni boshqarishning samarali mexanizmini ishlab chiqish;

korxonalarda raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarishning istiqbollarini aniqlash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib yengil sanoat korxonalaridagi sifatni sifatni boshqarish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik, ekonometrik, monografik tahlil, guruhlash, solishtirma tahlil, tanlanma kuzatuv, qo‘yilgan muammolarga mantiqan yondashish va olingan ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish, korrelyatsion va regression tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “yengil sanoat tarmog‘ida sifatni samarali boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, standartlashtirish, resurslardan foydalanish va bozor raqobatbardoshligini o‘zaro bog‘liq holda boshqarish orqali korxonalarning barqaror rivojlanishi va eksport imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan iqtisodiy-boshqaruv mexanizm sifatida takomillashtirilgan;

yengil sanoat korxonalari sifatni boshqarish samaradorligini baholash uslubi sifatni samarali boshqarish indeksining “yuqori samaradorlik daraja” ($0,8 \leq SBSI_{yuq.} \leq 1,0$), “barqaror shakllangan daraja” ($0,6 \leq SBSI_{barq.} \leq 0,79$), “rivojlanish bosqichdagi daraja” ($0,4 \leq SBSI_{riv.} \leq 0,59$), “kritik daraja” ($0 \leq SBSI_{krit} \leq 0,39$) chegaraviy qiymatlari orqali belgilash asosida takomillashtirilgan;

yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish darajasini baholashning kichik, o‘rta va yirik korxonalar toifasiga moslashtirilgan differensial balli-mezonli usuli doirasida korxonalarning ishlab chiqarish quvvati, resurs imkoniyatlari, boshqaruv

murakkabligi va standartlashtirish darajalariga ko‘ra “kritik daraja” (1,00-1,80), “boshlang‘ich sifat samaradorligi” (1,81-2,60), “rivojlanayotgan sifat samaradorligi” (2,61-3,40), “barqaror samaradorlik” (3,41-4,21) va “yuqori sifat samaradorligi” (4,21-5,00) mezon chegaralarida baholash taklifi asoslangan;

“Yanteks” mas’uliyati cheklangan jamiyatiining asosiy ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar asosiy ko‘rsatkichlarining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

yengil sanoat korxonalarida sifatni samarali boshqarishning iqtisodiy-boshqaruv mazmuni mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, standartlashtirish, resurslardan foydalanish va bozor raqobatbardoshligi o‘zaro bog‘liqligi asosida takomillashtirilgan;

sifatni boshqarish samaradorligini baholash uchun mahsulot sifati, ishlab chiqarish-iqtisodiy samaradorlik, bozor va raqobatbardoshlik hamda tashkiliy-boshqaruv indekslariga asoslangan kompleks baholash uslubi ishlab chiqilgan;

yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligi indeksini baholash uchun “kritik”, “rivojlanish bosqichidagi”, “barqaror shakllangan” va “yuqori samaradorlik” darajalari bo‘yicha chegaraviy mezonlar taklif etilgan;

Namangan viloyati yengil sanoat korxonalari misolida kichik, o‘rta va yirik korxonalar toifasiga moslashtirilgan differensial balli-mezonli baholash metodi asoslangan;

“Yanteks” MChJ faoliyati misolida sifatni boshqarish samaradorligi baholanib, korxonaning asosiy ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar asosida 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning sifatni boshqarish sohasidagi samarali mexanizm xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining ma’lumotlari hamda boshqa rasman e’lon qilingan amaliy ma’lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli mulk shaklidagi korxonalarda sifatni boshqarishning samarali mexanizmidan foydalanish zarurligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirishda ular mahsulotlarining sifatini yanada yaxshilash va raqobatbardoshlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va ulardan O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat Palatasi, shuningdek, yengil sanoat korxonalari samarasini oshirishni ta’minlovchi faoliyatini amalga oshirishda hamda ushbu sohani rivojlantirishga bag‘ishlangan maqsadli dasturlar va konsepsiyalar ishlab chiqish, oliy o‘quv yurtlarida «Menejment», “Sifat menejmenti”, «Kichik biznes va tadbirkorlik», “Tashqi iqtisodiy faoliyat” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqobat muhiti sharoitida korxonalarda sifatni boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy takliflar asosida:

Uslubiy yondashuvga ko‘ra “yengil sanoat tarmog‘ida sifatni samarali boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, standartlashtirish, resurslardan foydalanish va bozor raqobatbardoshligini o‘zaro bog‘liq holda boshqarish orqali korxonalarning barqaror rivojlanishi va eksport imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan iqtisodiy-boshqaruv mexanizm sifatida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Mehnatni tashkil etish va boshqarish” nomli darslik tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi talabalarda yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarishning iqtisodiy mazmuni, uning ishlab chiqarish samaradorligi, standartlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlik bilan bog‘liq jihatlarini chuqurroq anglash imkonini bergan;

Yengil sanoat korxonalari sifatni boshqarish samaradorligini baholash indeksining “yuqori samaradorlik daraja” ($0,8 \leq SBSI_{yuq.} \leq 1,0$), “barqaror shakllangan daraja” ($0,6 \leq SBSI_{barq.} \leq 0,79$), “rivojlanish bosqichdagi daraja” ($0,4 \leq SBSI_{riv.} \leq 0,59$), “kritik daraja” ($0 \leq SBSI_{krit} \leq 0,39$) chegaraviy qiymatlari belgilash asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 11-maydagi 06-127-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida yengil sanoat korxonalarda mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, bozor raqobatbardoshligi va tashkiliy-boshqaruv jarayonlarini kompleks baholash orqali sifatni boshqarish samaradorligini 15-20%ga oshirish, nuqsonli mahsulotlar ulushini 10-15%ga kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini 12-18%ga yaxshilashga xizmat qilgan;

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish darajasini baholashning kichik, o‘rta va yirik korxonalar toifasiga moslashtirilgan differensial balli-mezonli metodi korxonalarning ishlab chiqarish quvvati, resurs imkoniyatlari, boshqaruv murakkabligi va standartlashtirish darajalari inobatga olinib, “kritik daraja” (1,00-1,80), “boshlang‘ich sifat samaradorligi” (1,81-2,60), “rivojlanayotgan sifat samaradorligi” (2,61-3,40), “barqaror samaradorlik” (3,41-4,21) va “yuqori sifat samaradorligi” 4,21-5,00 mezon chegaralarida baholash taklifi asoslangan taklifi O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 11-maydagi 06-127-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish holatini korxona toifasi bo‘yicha aniq baholash, kichik, o‘rta va yirik korxonalarning kuchli va zaif jihatlarini ajratish hamda har bir toifa uchun maqsadli takomillashtirish choralarini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

“Yanteks” mas’uliyati cheklangan jamiyatining asosiy ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston

Savdo-sanoat palatasi Namangan hududiy boshqarmasi tomonidan “Yanteks” MChJni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 11-maydagi 06-127-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida “Yanteks” MChJning ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati, eksport imkoniyatlari, resurslardan foydalanish samaradorligi va raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini istiqbolli baholash imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, prognoz natijalari korxonada sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va 2030-yilga qadar rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda amaliy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi xorijiy va 3 tasi pespublika jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, 3 ta respublika va 4 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to‘plamlarida ma’ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqobat muhiti sharoitida mahsulot sifatini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sifat tushunchasi va uni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarishning tarkibiy yo‘nalishlari va uslubiy jihatlari asoslangan. Bobda sifatni boshqarish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilib, ulardan milliy yengil sanoat korxonalari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Sifat ko‘p asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelayotgan murakkab iqtisodiy-boshqaruv kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Uning murakkabligi shundaki, sifat faqat mahsulot yoki xizmatning tashqi ko‘rinishi, texnik xususiyatlari yoki nuqsonsizligi bilan cheklanmaydi, balki iste’molchi ehtiyojlari, ishlab chiqarish

imkoniyatlari, xavfsizlik, ishonchlilik, standartlarga muvofiqlik, raqobatbardoshlik va bozor talablari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli korxonada sifatni ta’minlash tasodifiy yoki faqat yakuniy nazoratga asoslangan jarayon emas, balki rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va doimiy takomillashtirishni talab etadigan boshqaruv jarayoni hisoblanadi.

“Sifat” tushunchasini izohlashda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Jumladan, J.M. Juran sifatni mahsulot yoki xizmatning belgilangan maqsadga muvofiqligi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, E.Deming uni mahsulot yoki xizmatning iste’molchi talab va kutilmalarini qondirish darajasi bilan bog‘laydi. F.Krosbi esa sifatni talablarga to‘liq muvofiqlik va nuqsonlarning mavjud emasligi orqali ifodalaydi. A.V.Feygenbaumning yondashuvida sifat mijoz ehtiyojlari va iste’molchi uchun foydali bo‘lgan xususiyatlar majmui sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, ularning barchasi sifatni iste’molchi talabi, mahsulotga qo‘yilgan talablar va ishlab chiqarish jarayonlarini to‘g‘ri boshqarish bilan bog‘laydi.

ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan qabul qilingan ISO 9000:2015 standartida ham sifat mahsulot yoki xizmatning belgilangan hamda kutilgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi xususiyat va tavsiflari majmui sifatida izohlanadi. Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, sifatni boshqarish - bu mahsulot va xizmatlarning belgilangan yoki kutilgan ehtiyojlarga muvofiqligini ta’minlash maqsadida korxonadagi ishlab chiqarish, texnologik, tashkiliy va nazorat jarayonlarini tizimli ravishda rejalashtirish, muvofiqlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv faoliyatidir.

Bugungi kunda iste’mol madaniyatining rivojlanishi, bozor raqobatining kuchayishi va xalqaro talablarning ortib borishi sifatni boshqarishni korxona faoliyatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirmoqda. Ayniqsa, yengil sanoat korxonalarida mahsulot sifati xomashyo tanlash, texnologik jarayonlarga rioya etish, xodimlar malakasi, ichki nazorat, sertifikatlashtirish va iste’molchi talablarini o‘rganish bilan bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, standartlar sifatni boshqarish tizimini tartibga soluvchi, mahsulot xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi umume’tirof etilgan “xalqaro til”[8] sifatida namoyon bo‘ladi.

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish mahsulotni yakuniy nazorat qilish bilan cheklanmaydi, balki xomashyo tanlash, texnologik jarayonlarni tashkil etish, xodimlar malakasi, ichki audit, standartlashtirish va iste’molchi talablarini hisobga olish kabi bir qator o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi. 1-jadvalda yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarishning asosiy tarkibiy yo‘nalishlari keltirilgan.

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish - bu xomashyo sifati, texnologik jarayonlar, xodimlar malakasi, ichki nazorat, standartlashtirish, iste’molchi talablari va resurslardan foydalanish samaradorligini o‘zaro bog‘liq holda boshqarish orqali raqobatbardosh, xavfsiz va bozor talablariga mos mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan kompleks boshqaruv jarayonidir.

[8]Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 13-iyun kuni standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasidagi samaradorlikni oshirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishdagi nutqidan.

1-jadval

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarishning tarkibiy yo‘nalishlari[9]

№	Sifatni boshqarish tarkibi	Mazmuni	Yengil sanoat korxonalarida namoyon bo‘lishi
1.	Xomashyo sifatini boshqarish	Ishlab chiqarishga kiritiladigan xomashyo va materiallarning sifat talablariga mosligini ta’minlash	Ip-kalava, mato, bo‘yoq, furnitura, yordamchi materiallar sifatini kirim bosqichida tekshirish
2.	Texnologik jarayon sifatini boshqarish	Ishlab chiqarish bosqichlarida texnologik me’yorlarga qat’iy rioya etish	Bichish, tikish, bo‘yash, pardozlash, qadoqlash jarayonlarida texnologik intizomni ta’minlash
3.	Mahsulot sifatini nazorat qilish	Tayyor mahsulotning belgilangan standart va iste’molchi talablariga muvofiqligini tekshirish	O‘lcham, chok sifati, rang barqarorligi, tashqi ko‘rinish, mustahkamlik va nuqsonlar darajasini baholash
4.	Xodimlar malakasini boshqarish	Sifatni ta’minlashda inson omili va kasbiy kompetensiyani oshirish	Tikuvchilar, texnologlar, sifat nazoratchilari va ishlab chiqarish ustalarini muntazam o‘qitish
5.	Ichki nazorat va audit tizimi	Korxonada sifatga ta’sir etuvchi jarayonlarni muntazam tekshirish va kamchiliklarni aniqlash	Ichki audit o‘tkazish, nomuvofiqliklarni qayd etish, ularni bartaraf etish choralarini belgilash
6.	Standartlash va sertifikatlashtirish	Mahsulot va ishlab chiqarish jarayonlarini milliy va xalqaro standartlarga moslashtirish	ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS, WRAP, BSCI kabi standartlarni joriy etish
7.	Iste’molchi talablarini boshqarish	Mijozlar ehtiyoji, shikoyatlari va bozor talablarini o‘rganish	Qaytarilgan mahsulotlar, shikoyatlar, buyurtmachi talablari va dizaynga oid fikrlarni tahlil qilish
8.	Nuqsonlarni boshqarish	Nuqsonli mahsulotlarni aniqlash, sabablarini tahlil qilish va oldini olish	Brak mahsulot ulushini kamaytirish, qayta ishlash xarajatlarini pasaytirish
9.	Resurslardan foydalanish samaradorligi	Sifatni ta’minlashda xomashyo, energiya, mehnat va vaqt sarfini optimallashtirish	Elektr energiyasi, xomashyo sarfi, mehnat unumdorligi va mahsulot tannarxini nazorat qilish

[9]Muallif ishlanmasi.

10.	Raqobatbardoshlikni ta’minlash	Sifat orqali korxonaning bozordagi ustunligini kuchaytirish	Eksportga mos, xavfsiz, talabgir va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish

Tadqiqotda raqobat muhiti sharoitida yengil sanoat korxonalarida sifatni samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirildi. Ushbu yondashuvda sifatni boshqarish jarayoni faqat mahsulotni nazorat qilish bilan cheklanmasdan, balki iste’molchilar talablari, mahsulot sifati ko‘rsatkichlari, ichki va tashqi omillar, tashkiliy-boshqaruv vazifalari hamda raqobat ustunligini ta’minlash jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liq holda qaraldi.

Uslubiy yondashuvga ko‘ra, “yengil sanoat tarmog‘ida sifatni samarali boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi ichki, tashqi va tashkiliy-boshqaruv omillarini iqtisodiy, tashkiliy hamda ma’muriy vazifalar bilan o‘zaro muvofiqlashtirish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, iste’molchilar talabini qondirish va korxonalarning bozor ustunligini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida takomillashtirilgan.


Mazkur mexanizmda yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi ichki omillar, tashqi omillar va tashkiliy-boshqaruv omillarini iqtisodiy, tashkiliy va ma’muriy vazifalar bilan muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa mahsulot sifatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish, rag‘batlantirish va muvofiqlashtirish asosida sifatni yaxshilash hamda raqobatda ustunlikka erishish imkonini beradi.

Taklif etilgan mexanizmda sifatni boshqarish jarayoni iqtisodiyot va iste’molchilar talablari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bunda talablar, sifat va ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik mahsulot sifatini boshqarishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Sifat omillarining ichki, tashqi va tashkiliy-boshqaruv guruhlariga ajratilishi esa korxonada mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli baholash va ularni maqsadli boshqarish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Yengil sanoat korxonalarida raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish tizimining hozirgi holati tahlil qilingan, raqobat muhitida mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi omillar va ularni baholash yondashuvlari yoritilgan hamda “Yanteks” MChJ misolida sifatni boshqarish samaradorligi baholangan.

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish tizimining hozirgi holatini baholashda respublikada amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Chunki korxonalarda sifatni boshqarishi tizimlarni joriy etish faqat korxonaning ichki tashabbusi bilan emas, balki mamlakatdagi standartlashtirish, milliy standartlarni xalqaro talablarga moslashtirish va sertifikatlashtirish infratuzilmasining rivojlanishi bilan ham bog‘liq xisoblanadi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida xalqaro sifat standartlarini joriy etilgan korxonalar sonini 10 barobarga oshirib, 5 mingtaga yetkazish belgilangan.



1-rasm. Raqobat muhiti sharoitida yengil sanoat korxonalarida sifatni samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi[10]

[10] Muallif ishlanmasi.

Shu bilan birga, rejalashtirilgan 1200 ta korxona o‘rniga 1358 ta korxonada sifat menejmenti tizimi joriy etilib, reja 113%ga bajarilgan. Bu holat respublikada korxonalarning sifatni boshqarishga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda sifat menejmenti standartlarini joriy etgan sub’ektlar soni 2020 yilda 10 788 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 13 871 taga yetgan. Ya’ni besh yil davomida standartlarni joriy etgan sub’ektlar soni 3 083 taga yoki taxminan 28,6%ga oshgan. Bu holat mamlakatda korxonalar faoliyatida sifatni boshqarish jarayonlari bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida sifat menejmenti standartlarini joriy qilinganligi to‘g‘risida ma’lumot[11]

№	Viloyatlar nomi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 yilda 2023 yilga nisbatan o‘zgarish
1.	Qoralpog‘iston Respublikasi	270	316	332	362	395	33
2.	Andijon	888	1000	1012	1068	1112	44
3.	Buxoro	667	744	763	851	877	26
4.	Jizzax	345	398	406	442	479	37
5.	Qashqadaryo	556	662	672	768	796	28
6.	Navoiy	594	628	634	702	686	-16
7.	Namangan	718	833	841	885	947	62
8.	Samarqand	1540	1678	1717	1800	1854	54
9.	Surxandaryo	452	556	571	637	647	10
10.	Sirdaryo	335	372	379	411	430	19
11.	Toshkent viloyati	1062	1166	1206	1317	1331	14
12.	Farg‘ona	1073	1159	1172	1276	1291	15
13.	Xorazm	481	593	614	645	672	27
14.	Toshkent shahri	1807	1996	2050	2132	2354	222
	Jami:	**10788**	**12101**	**12 369**	**13296**	**13871**	**575**

Eksport bozorlari talablarining kuchayishi ham yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Tashqi bozorlarda mahsulot sifati bilan birga xavfsizlik, ekologik talablar, sertifikatlar, mehnat sharoitlari va ishlab chiqarish jarayonining shaffofligi ham muhim hisoblanadi. Shu sababli ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 kabi standartlarni joriy etish eksportga yo‘naltirilgan korxonalar uchun muhim raqobat vositasidir.

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligini baholash korxonada joriy etilgan boshqaruv tizimi amalda qanday natija berayotganini aniqlash imkonini beradi. Bunda sifatni boshqarish jarayonining samarasi mahsulotdagi nuqsonlar kamayishi, qaytarilgan mahsulotlar ulushi pasayishi,

[11] Texnik jihatdan tartibga solish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

iste’molchilar shikoyatlari qisqarishi, mehnat unumdorligi oshishi, ishlab chiqarish xarajatlari optimallashishi hamda eksport hajmi ortishi orqali namoyon bo‘ladi.

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligini baholashda faqat ishlab chiqarish hajmi yoki eksport ko‘rsatkichlari bilan cheklanish yetarli emas. Chunki sifatni boshqarish tizimining haqiqiy natijasi mahsulot nuqsonlarining kamayishi, iste’molchilar shikoyatlarining qisqarishi, mahsulotning texnik talablarga mosligi, xodimlar malakasi, ichki nazorat tizimi va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli «Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligini baholashda ishlab chiqarish, iqtisodiy, bozor va tashkiliy-boshqaruv ko‘rsatkichlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda korxonaning 2020-2024 yillardagi eksport hajmi, mahsulot tannarxi, xodimlar soni, mahsulot assortimenti va energiya sarfi kabi mavjud ma’lumotlari asos qilib olindi. Shu bilan birga, sifatni baholash uchun zarur bo‘lgan ayrim qo‘shimcha ko‘rsatkichlar shartli ravishda kiritildi (3-jadval).

3-jadval

«Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari[12]

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 yilda 2020 yilga nisbatan o‘zgarish
1.	Eksport hajmi, ming AQSh dollari	106,8	162,66	189,1	203,8	229,8	215,0 %
2.	Mahsulot birligining to‘la tannarxi, ming so‘m	11,0	14,0	16,0	19,0	21,0	190,9 %
3.	Xodimlar soni, kishi	40	43	43	44	44	110,0 %
4.	Eksport qilinayotgan mahsulot assortimenti, dona	28	30	30	31	31	107,1 %
5.	Birlik mahsulotga elektr energiyasi sarfi, kVt	46,211	48,378	49,276	50,276	62,234	136,8 %
6.	Nuqsonli mahsulotlar ulushi, %	5,6	4,8	4,1	3,4	2,8	50,0 % ga kamaygan
7.	Qaytarilgan mahsulotlar ulushi, %	2,4	2,1	1,8	1,4	1,1	54,2 % ga kamaygan
8.	Iste’molchi shikoyatlari soni, dona	24	20	16	12	9	62,5 %ga kamaygan
9.	Sifat talablariga mos mahsulotlar ulushi, %	94,4	95,2	95,9	96,6	97,2	2,8%ga oshgan
10.	Ichki auditda aniqlangan nomuvofiqliklar soni	16	13	10	8	6	62,5 % ga kamaygan
11.	Sifat bo‘yicha o‘qitilgan xodimlar ulushi, %	22	35	48	61	70	48%ga oshgan

«Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligini baholashda bosqichma-bosqich indeksli yondashuv qo‘llanildi. Dastlab baholashning maqsadi va obyekti

[12] “Yanteks” MChJining rasmiy ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

aniqlanib, korxona faoliyatida sifatni ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar tanlab olindi. Keyingi bosqichda ushbu ko‘rsatkichlar ta’sir yo‘nalishiga ko‘ra stimulyator va destimulyatorlarga ajratildi hamda ularni o‘zaro taqqoslash imkonini berish maqsadida me’yorlashtirildi. Me’yorlashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida mahsulot sifati indeksi (MSI), ishlab chiqarish-iqtisodiy samaradorlik indeksi (IISI), bozor va raqobatbardoshlik indeksi (BRI) hamda tashkiliy-boshqaruv indeksi (TBI) hisoblandi.

Mazkur xususiy indekslar «Yanteks» MChJda sifatni boshqarish tizimining mahsulot sifati, ishlab chiqarish xarajatlari, bozor natijalari va boshqaruv jarayonlariga ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi.Har bir xususiy indeks quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$I = (N_1 + N_2 + ... + N_n) / n \quad (1)$$

Bu yerda: I - xususiy indeks; $N_1,N_2,...,N_n$ - normallashtirilgan ko‘rsatkichlar; n - guruhga kiritilgan ko‘rsatkichlar soni.

Yuqoridagi formula asosida «Yanteks» MChJda xususiy indekslari xisob-kitob qilinadi (4-jadval)

4-jadval

«Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligining tarkibiy indekslari tahlili[13]

Yillar	Mahsulot sifati indeksi	Ishlab chiqarish-iqtisodiy samaradorlik indeksi	Bozor va raqobatbardoshlik indeksi	Tashkiliy-boshqaruv indeksi
2020	0,000	0,667	0,000	0,000
2021	0,268	0,667	0,463	0,286
2022	0,511	0,662	0,623	0,571
2023	0,780	0,572	0,863	0,806
2024	1,000	0,333	1,000	1,000

“Yanteks” MChJda sifatni boshqarish samaradorligini umumiy baholash uchun xususiy indekslarga ularning mazmuniy ahamiyatidan kelib chiqib vazn koeffitsiyentlari berildi. Bunda mahsulot sifati indeksi - 0,30, ishlab chiqarish-iqtisodiy samaradorlik indeksi - 0,25, bozor va raqobatbardoshlik indeksi - 0,25, tashkiliy-boshqaruv indeksi esa 0,20 vazn bilan baholandi. Umumiy sifatni boshqarish samaradorligi indeksi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$SBSI = 0,30 \times MSI + 0,25 \times IISI + 0,25 \times BRI + 0,20 \times TBI \quad (2)$$

Bu yerda: SBSI - sifatni boshqarish samaradorligi indeksi; MSI - mahsulot sifati indeksi; IISI - ishlab chiqarish-iqtisodiy samaradorlik indeksi; BRI - bozor va raqobatbardoshlik indeksi va TBI - tashkiliy-boshqaruv indeksi.

Mazkur formula asosida «Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligining umumiy indeksi hisoblanib, korxonada sifat menejmenti tizimining mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, bozor natijalari va tashkiliy-boshqaruv jarayonlariga ta’siri kompleks baholandi (5-jadval).

[13]Muallif ishlanmasi.

5-jadval

«Yanteks» MChJda umumiy sifatni boshqarish samaradorligi indeksi[14]

Yillar	MSI	IISI	BRI	TBI	Umumiy SBSI
2020	0,00	0,67	0,00	0,00	0,17
2021	0,27	0,67	0,46	0,29	0,42
2022	0,51	0,66	0,62	0,57	0,59
2023	0,78	0,57	0,86	0,81	0,75
2024	1,00	0,33	1,00	1,00	0,83

Keyingi bosqichda hisoblangan sifatni boshqarish samaradorligi indeksi maxsus baholash mezonlari asosida talqin qilindi. Bunda indeks qiymati 0 va 1 oralig‘ida baholanib, uning 1 ga yaqinlashishi korxonada sifatni boshqarish tizimi samaradorligi yuqori ekanligini, 0 ga yaqinlashishi esa mazkur tizimda takomillashtirish zarur bo‘lgan jihatlar mavjudligini anglatadi. Sifatni boshqarish samaradorligi indeksini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanildi (6-javdal).

6-jadval

Sifatni boshqarish samaradorligi indeksini baholash[15]

Indeks qiymati	Baholash darajasi	Mazmuni
0,00-0,39	Kritik daraja	Sifatni boshqarish tizimi yetarli shakllanmagan, jiddiy takomillashtirish talab etiladi
0,40-0,59	Rivojlanish bosqichidagi daraja	Sifatni boshqarish tizimida ijobiy o‘zgarishlar mavjud, ammo tizimlilik hali yetarli emas
0,60-0,79	Barqaror shakllangan daraja	Sifatni boshqarish tizimi amalda natija bermoqda, asosiy jarayonlar shakllangan
0,80-1,00	Yuqori samaradorlik darajasi	Sifatni boshqarish tizimi barqaror va samarali ishlamoqda

Mazkur mezonlar asosida «Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligi indeksi yillar kesimida talqin qilindi. Hisob-kitob natijalari korxonada sifat menejmenti tizimining rivojlanish dinamikasini aniqlash, mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, bozor raqobatbardoshligi va tashkiliy-boshqaruv jarayonlaridagi o‘zgarishlarni kompleks baholash imkonini berdi (7-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, «Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligi 2020-2024 yillar davomida bosqichma-bosqich yaxshilanib borgan. Xususan, umumiy SBSI ko‘rsatkichi 2020 yilda 0,17 ni tashkil etib, kritik darajada baholangan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 0,83 ga yetgan va yuqori samaradorlik darajasiga ko‘tarilgan. Bu holat korxonada mahsulot sifati, ichki audit, bozor

[14]Muallif ishlanmasi.
[15]Muallif ishlanmasi.

natijalari va tashkiliy-boshqaruv jarayonlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi.

7-jadval

«Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligi indeksini baholash[16]

Yillar	Umumiy SBSI	Baholash darajasi	Qisqacha izoh
2020	0,17	Kritik daraja	Sifatni boshqarish tizimi to‘liq shakllanmagan, mahsulot sifati va bozor natijalari past darajada bo‘lgan
2021	0,42	Rivojlanish bosqichidagi daraja	Sifatni boshqarishda ijobiy o‘zgarishlar boshlangan, ammo barqaror tizim hali yetarli emas
2022	0,59	Rivojlanish bosqichidagi daraja	Mahsulot sifati va eksport natijalari yaxshilangan, biroq indeks yaxshi darajaga hali yetmagan
2023	0,75	Barqaror shakllangan daraja	Sifat ko‘rsatkichlari, ichki audit va bozor natijalari sezilarli yaxshilangan
2024	0.83	Yuqori samaradorlik darajasi	Sifatni boshqarish tizimi yuqori samara bera boshlagan, ammo tannarx va energiya sarfi muammosi saqlangan

Xulosa qilib aytganda, «Yanteks» MChJda sifatni boshqarish samaradorligi tahlil davrida kritik darajadan yuqori samaradorlik darajasigacha ko‘tarilgan. Bu korxonada sifat menejmenti tizimi ijobiy natija berayotganini ko‘rsatadi, ammo uning barqarorligini ta’minlash uchun xarajatlar va energiya sarfi ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

Dissertatsiyaning **“Yengil sanoat korxonalarida raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarishni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida Namangan viloyati yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari asoslab berilgan. Shuningdek, raqobat muhiti sharoitida sifatni boshqarish tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan hamda yengil sanoat korxonalari rivojlanishining istiqboldagi holati prognoz qilingan.

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish tizimining amaldagi holatini baholashda faqat statistik yoki moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanish yetarli emas. Chunki sifat menejmenti tizimining samaradorligi korxonadagi rahbariyat yondashuvi, xodimlarning sifat talablaridan xabardorligi, ichki nazorat amaliyoti, mahsulot nuqsonlari bilan ishlash tartibi, iste’molchilar shikoyatlarini o‘rganish va xalqaro standartlarga rioya etish darajasi bilan ham bevosita bog‘liq. Shu maqsadda tadqiqot doirasida Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalari o‘rtasida maxsus so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma yengil sanoat

[16]Muallif ishlanmasi.

korxonalarida sifatni boshqarish tizimining holati, uning ishlab chiqarish jarayoniga ta’siri, mahsulot raqobatbardoshligi va ichki nazorat mexanizmlarini baholashga qaratildi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligi korxona hajmiga bog‘liq holda farqlanishi aniqlandi. Shu sababli tadqiqotda kichik, o‘rta va yirik korxonalar uchun yagona baholash mezoni emas, balki ularning ishlab chiqarish quvvati, resurs imkoniyatlari va boshqaruv murakkabligini inobatga olgan differensial balli-mezonli yondashuv qo‘llanildi. Bunda yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligini baholashning kichik, o‘rta va yirik korxonalar toifasiga moslashtirilgan differensial balli-mezonli metodi korxonalarning ishlab chiqarish quvvati, resurs imkoniyatlari, boshqaruv murakkabligi va standartlashtirish darajalari inobatga olinib, “kritik daraja” (1,00-1,80), “boshlang‘ich sifat samaradorligi” (1,81-2,60), “rivojlanayotgan sifat samaradorligi” (2,61-3,40), “barqaror samaradorlik” (3,41-4,21) va “yuqori sifat samaradorligi” 4,21-5,00 mezon chegaralarida baholash taklifi asoslandi(8-jadval).

8-jadval

